

YOSH BOLALARNI BUYUK ALLOMALAR QILIB YETISHTIRISHDA KITOBNING AHAMIYATI

Kurtbayeva Ogulsapdi Xemara gizi
Ajinyaz nomidagi NDPI- Boshlang'ich ta'lim
fakultetining 2-guruh talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada yosh bolalarni buyuk allomalar qilib yetishtirishda kitobning ahamiyati va unga ta'sir qiladigan vositalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kitob, ona, bola, zamonaviy texnologiyalar, maqollar,

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob- beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai".

Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb- hunar o'rganish bilan ham barobardir. Kitobning ahamiyati hayotimiz davomida juda katta o'rinni egallaydi. Ayniqsa, yosh bolalarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Ular qachon kitobga mehr beradi? deb o'ylashingiz mumkin. Bu savolga yagona javob bor. Qachonki bolalarga o'zlarining dunyo qarashi va yoshiga mos kitob tanlay olsak, bolada kitobga muhabbat uyg'onadi. Aslida, shuni aytishimiz mumkinki o'spirin o'quvchilar o'z adabiyotlarini to'g'ri tanlasalar ular yaxshi o'qiydigan bo'ladi.

Biz kattalarning vazipimiz esa bunga ko'maklashishidir. Chunki, yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham inson avvalo kitobni sevishi va ardoqlashi uni, o'zining do'sti deb bilishi lozim. Boshidan boshlaydigan bo'lsak, yosh bolalar kitob bilan tanishgan davrida rasimli ertaklar va kulgili she'rlar bilan boshlaydilar shu bilan kitobga bo'lgan qiziqishi boshlandi. Bundan tashqari bola nutqi, xotirasi rivojlanadi va so'z boyligini kengaytiradi. Chunki kitob o'qigan kishi oddiy kundalik hayotda ishlatilmaydigan so'zlarni ham uchratadi. Bu so'zning ma'nosini lug'atdan izlash ham kerak emas, zero kitob umumiy mazmunidan so'zning ma'nosi ham kelib chiqadi. Kitob o'qish boshqa odamlar bilan muloqot qilishda yordam beradi. Ya'ni, kitob o'qigan odam o'z fikrlarini chiroyli, aniq yorqin, ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

Bir nechta mumtoz adabiyotni o'qishning o'zida ham kishida gapirish san'ati bir qadam rivojlangani seziladi. Shu tariqa kishi yaxshi suhbatdosh bo'la oladi, odamlarda o'zi haqida yaxshi taassurot qoldiradi. Kitob o'qish insonni dadillashtiradi. Kitob o'qigan insonning o'ziga ishonchi ortadi. Chunki kitobdan olgan ilimlari unga madad beradi. Atrofingizdagi odamlardan esa siz haqingizda yaxshi tasavvur o'yg'onadi. Bu

esa insonni yanada jur'atli qiladi. Jumladan, "Kitobsiz aql-qanotsiz qush", "Bilim -aql chirog'i", "Go'zallik- ilmu ma'rifatda", deb ota bobolarimiz bejiz aytishmagan. Bunday hikmatli maqollarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni kasb- hunarli va albatta baxtli bo'lishning muhim omili- bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdadir. Kitobga oshno kishidan hech vaqt yomonlik chiqmaydi. Yosh bolalarni kitob o'qishni targ'ib etishimiz emas, balki ularga o'rnak bo'lishimiz lozim, shundagina ko'zlagan maqsadlarimizga yetamiz va bolalarni buyuk alloma qilib tarbiyalab bilamiz.

Ba'zi bolalar haqiqiy kitobsevar bo'lsa, boshqalar esa o'qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, barcha bolalarni kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin. Bundan qelib chiqib, onalarda shunday savol tug'ilishi mumkin, farzandlarimizni majburlamasdan o'qishga qanday qilib chorlashimiz mumkin? Deya, bunga esa javob quydagi 7 maslahat bolalarni kitobga mehr qo'yishiga yordam beradi.

- Zamonaviy texnologiyalardan foydalaning,
- Mutolaa burchagi qilib bering,
- Bolajonlarni tez-tez kutubxonaga olib boring,
- Kitoblar tez-tez suhbatingiz mavzusiga aylansi,
- Bolajonlar qiziqqan mavzudagi kitoblarni tanlang,
- Bolalarga namuna bo'ling,
- Har kuni kitob o'qib bering,

Bu amallarni bajargan har bir ota ona bolalarini kitob sevar kilib yetishtira oladi va buyuk alloma bolishiga yordam beradi. Ko'p hollarda bolalar kompyuter o'yinlarini hohlaydilar, onalar esa kitob o'qishni istaydi, bunday holda nima qilish kerak? degan, savolga shunday javob beramiz. Kitob mutolaasini ana shu jarayonga yaqinlashtirish, ya'ni zamonaviy texnologiyalardan foydalaning. Kompyuter yoki planshetdan foydalangan holda elektron kitoblardan o'qib bering. Internetda ko'plab bepul kitoblar topishi mumkinligini o'rgatish ularni onlayn yoki yuklab olish orqali o'qishlari mumkin bo'ladi.

Ba'zi elektron kitoblarning qog'oz nusxasiga nisbatan imkoniyatlari keng. Masalan, audio va video tasvirlar bilan boyitilgan bu hol esa bolalarni qiziqtirmay qo'ymaydi. Bu imkoniyatlar hozirgi zamon talabiga juda mos keladi. E'tibor bergan bo'lsak, so'nggi vaqtlarda yosh avlod, bolalar internet va turli ijtimoiy tarmoqlarga qiziqib ketib, ko'p kitob o'qimay qo'ygan edi. Bu bilimsizlikdan darak beradi. Bizning davrimizga kelib kitoblar ancha qadrsizlanib qoldi, chunki, kitob o'rnini bosuvchi

alternativ vositalar ko'payib ketdi. Chang bosgan kitob sahifalaridan ko'ra film yoki kompyuter o'yinlari qiziqroq. Insoniyat fikirlamaslik va miyani o'chirib qo'yish uchun hamma narsani soddalashtirishga ko'nikib qoldi. Bunday sharoitda nima sizni o'tirib kitob varaqlashga undashi mumkin?, degan savolga men shunday javob beraman. Kitoblardan har kim o'zi uchun hayot ma'nosini yoki o'zi sohasi uchun harakat qiladi va kerakli bo'lgan ko'nikmalarini topadi. Shuning uchun izlanadi. Bugun vatanimiz jadal rivojlanayotgan bir davrda ajdodlarimiz, donolar fikrida o'z aksini topgan kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi

Xulosa qilib aytganda, kitob bizning hozirgi hayotimizdir. Unga hamma muhtoj bolalar, o'rta yoshlilar, yoshlar va hatto qariyalar ham. Hamma gap ular uchun kitob tanlashda, biz hammadan oldin nomunosib tanlangan kitoblarni o'qish hech narsa o'qimagandan ko'ra yomonroq va zararliroqdir. Kitoblarning tanlanishi odamning fikr dunyosini, uning hayotiy qadriyatlarini ochib beradi. Biz kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishlari uchun shart-sharoit yaratish, sog'-salomat ulg'aytirish, ularga ota-ona kabi mehr berish oliy maqsadimiz. Yaxshi ijodiy asarlardan o'qing. O'zingiz rivojlaning va boshqalarga ham shu xususiyatni rivojlantirishga yordam bering!.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J.G'. Yo'ldashev- Interfaol ta'lim sifat kafolatil O'MOI. T 2007
2. Mamasoli .Jumaboyev . Bollalar adabiyoti . T.2008
3. baxtiyor.uz
4. davron.uz